________________________ hokimligi
maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi
_____________________ maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi
__-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
______________________________ning
2025-2026-o‘quv yili 3-sinf
o‘qish savodxonligi fanidan
IV chorak uchun

# DARS ISHLANMALARI

# DIQQAT

**Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan OMONAT qilib berildi. Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo'lsa ham OMONAT hisoblanadi. Ushbu OMONATni faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoninggizga ham. Tijoriy maqsadda foydalanmang. Internet va Veb-sayitlarga joylamang. Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

**Telegram orqali admin Nabiyev Zokirjon bilan bog'lanish 90-530-68-66 yoki Nza456**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘________ _________________________**

**2025-2026-o‘quv yili 3-sinf o‘qish savodxonligi fanidan IV chorak uchun taqvim mavzu rejasi**

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 1 butun oy 12 yulduz J. Rahim | 1 | | |
| 2. | Izza M. Hamidova | 1 | | |
| 3. | Mehr urug‘i rivoyat | 1 | | |
| 4. | Bilasizmi bolalar. Maqtanchoq. T. Yo‘ldosh | 1 | | |
| 5. | Kapalak M. Murodov | 1 | | |
| 6. | Toshpo‘lat A.Akbar | 1 | | |
| 7. | STO‘ | 1 | | |
| 8. | Bo‘lim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 9. | **Nazorat ishi-8** | 1 | | |
| 10. | Kitobni qanday o‘qish kerak | 1 | | |
| 11. | Kitob kuch N. Ermatov | 1 | | |
| 12. | Aql bilan Davlat audio ertak | 1 | | |
| 13. | Kitobning qimmati X. Shomurodov | 1 | | |
| 14. | STO‘ | 1 | | |
| 15. | Kitobni do‘st bilganlar | 1 | | |
| 16. | Bolim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 17. | Yurt madhi D.Rajab | 1 | | |
| 18. | Yurtim bo‘ylab sayohat audiomatn | 1 | | |
| 19. | Orzu yo‘li R.Isoqov | 1 | | |
| 20. | Orol rivoyat | 1 | | |
| 21. | Qashqadaryo N.Narzullayev | 1 | | |
| 22. | Bolim yuzasidan takrorlash | 1 | | |
| 23. | **Nazorat ishi-9** | 1 | | |
| 24. | STO‘ | 1 | | |

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Bir butun oy, o‘n ikki yulduz**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Tabiat qo‘yniga chiqqan bolalar atrof-muhitni asrab, unga ozor yetkazm adilar.
Nargiza m aktabdan qaytgach, onasining yum ushlariga yordam berishdan hech erinmaydi.
Anvar katta yo‘ldan o‘tayotib, o‘zidan kichik sinfda o‘qiydigan M alikning qo‘lidan ushlab oldi.

Bir butun oy, o‘n ikki yulduz

Jo‘ra Rahim

Juda qadim zamonda Chol-u kampir bor edi.
o‘g‘il va qiz ko‘rmagan, Dastyorga-chi, zor edi.
Ikkalasi ham ahil,Aqlda edi dono.
Shuning uchun qo‘shnilar, Hurmatlardi doimo.
Kampir uyda o‘tirar,Qilib uyning yumushin.
Choi omoch-la yer haydab, Tamomlar dala ishin.
Bug‘doy o‘rish ko‘yida,Choi qirga ketdi bir kun.
Kampir qoldi uyida,Ovqat tayyorlash uchun.
Mana, ovqat ham tayyor, Kim olib borar qirga?
Kampir yalinib ko‘rdi, Qo‘shni o‘g‘li Tohirga:
- o‘rgilay, o‘g‘lim, shuni Eltib bergin bobongga.
“Bir butun oy, o‘n ikki Yulduz”, - degin bobongga.
- Ha, xo‘p, - deya Tohirjon Jo‘nabdi qir tomonga.



Yo‘l yurish va charchoqlik Oxir tegibdi jonga.
So‘ng madori quribdi,Qorni ocha boshlabdi.
Tugunni yerga qo‘yib, Asta yecha boshlabdi.




Tugunda so‘lqillama Bir qatlama bor ekan.
Idishda chuchvaralar Terilgan qator ekan.
Chuchvara, qatlamadan Keragicha yebdi u.
“Qolganini eltarman Bobomlarga”, - debdi u.
Yetib borib boboga Topshirarkan tugunni,
Debdi: -• Buvim-chi, menga Tayinladilar shuni:
- Bu tugunni bobongga Eltib bergin, - dedilar.
- “Bir butun oy, o‘n ikki Yulduz, degin”, - dedilar.
Tohirni alqab-yulqab Bobo ovqatni yebdi.
Idishni bera turib,Tohirga shunday debdi:




- Kech qolding, o‘g‘lim, yugur, Adashib qolma qirda.
“Yarimta oy, oltita Yulduz”, - deb qo‘y kampirga.
- Ha, xo‘p, - deya Tohirjon o‘qday uchib ketibdi.
Kechga qolmay kampirning Huzuriga yetibdi.
- Siz yuborgan ovqatni Bobom maqtab yedilar.
“Yarimta oy, oltita Yulduz” , - degin dedilar.
- Tugunni yechibsan-a? - Deb so‘rab qoldi kampir.
- Yechganim yo‘q, buvijon, - Tohir bermay turdi sir.
- Shoshma, shoshma, yulduzim, Quloq ber, menga qara.
Oltita yulduz o‘zi,Olti dona chuchvara.
Yarim oy degani - Yarimta qatlamadir.




Gapimga quloq solib,Gap qaytarmay tura tur.
Bir butun qatlamadan Yarmini o‘zing yebsan,
Nega hech tan olmaysan,Sira yemadim deysan?
o‘n ikki chuchvaradan Olti dona qolsa ham,
Yeganim yo‘q, deya san Bo‘yin bermaysan, erkam.
Yebsan, mayli, jon bolam, Yeganlaring osh bo‘lsin!
Ammo to‘g‘ri gapirgin, Buviginang o‘rgilsin.

1. Ertak nima haqida ekan?
2. Buvi nima uchun Tohirga ovqatni olib borishni iltimos qildi?
3. “Bir butun oy, o ‘n ikki yulduz”deganda nimani tushundingiz?
4. Tohiryolg‘on gapirganini buvi qayerdan bildi?
5. “Yeganim yo‘q, deya san
Bo‘yin bermaysan, er/ca/77” misrasini qanday tushundingiz?
6. Ertakda insonning qanday fazilatlari madh etilgan?

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:**
1. Ertakni rollarga bo‘lib, ifodali o‘qing.
2. Ertak qahramonlariga ta’rif bering.
3. Agar kampir bolaga faqatgina tugunni berib, bu gapni aytmaganda, vaziyat qanday bo‘lar edi? Javobingizni izohlang

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Izza**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Izza**

Muhabbat Hamidova

Shahlo - Komilaning dugonasi. Komilaning oyisi uni juda sarishta, chaqqon, oyisining dastyori, deb maqtagani-maqtagan. Komilaning ham dugonasiga havasi keladi. Doim birga o‘ynaydi. Komila, odatdagidek, darslarini tayyorlab bo‘lgach, dugonasining yoniga chiqdi. Shahlo hovliga suv sepayotgan ekan.
- Komila, birpas kutib tur, hovlini supurib olay, keyin o‘ynaymiz, - dedi Shahlo qo‘liga supurgisini olib.
- Mayli, unda men ko‘chaga suv sepib turaman, - dedi Komila va bo‘sh chelakchani qo‘liga oldi.Shahlo hovlini supurib bo‘lgach, to‘plangan axlatini xokandozga soldi-da, olib borib ko‘cha chetidagi suv to‘lib oqayotgan ariqchaga tashladi.
- Nega bunday qilding? - Komila xafa bolib so‘radi. - Axir, o‘zing hozir shu ariqchadan suv olib hovliga sepib changini bostirding, hovli salqin bo‘ldi.
Men gullaringni shu suvdan sug‘ordim. Suvdan yaxshilik ko‘rib, endi unga yomonlik qilasanmi? Qara, tip-tiniq suvning yuzini loyqalatding. Bu suv qo‘shnining hovlisidan ifloslanib oqadimi endi?
- Nega jahling chiqadi? Hozir tinib qoladi. Men xazonlarni ham doim suvga supurib tashlayman. Hech narsa qilmaydi, buvim aytgan: “Suv yetti marta dumalasa, toza bo‘larkan” , - deya

beparvo tirjaydi Shahlo.
- Mening buvim esa boshqacha oʻrgatgan: suvga tupurish, axlat tashlash gunoh. Suv - ko pchilikning rizqi. U ham nonday aziz. Suvsiz hayot boʻlmaydi, nafaqat odamlar, balki jonivorlar, dov-daraxtlar ham suv bilan tirik. Suvni xor qilgan xor bo ladi, deyishadi.
Agar tashlangan axlatlar quvurga tiqilib qolsa, koʻchaga suv toshib ketadi-ku.
- E, bir xokandoz axlat bilan suv tosharkanmi?
oʻzing hovli supurmaganing uchun bilmaysan-da. Hozir koʻpchilik qoʻshnilar suvga supuradi.
- Gapingni qara, sirayam oʻzingga oʻxshamaysan. Sendan xafaman, axir ustozimiz bizga necha marta suvning foydasi haqida aytib bergan. Suvni asrash burchingiz, degan. Endi men seni "Yashil soqchi" guruhidan chiqarishlarini soʻrayman. Sen tabiatning doʻsti emas ekansan. oʻzim ham senga dugona boʻlmayman. 01 chelagingni.
Komila chelakni Shahloning qoʻliga tutqazdi-da, keta boshladi.
- Komila, jon Komila, toʻxta, toʻxtay qolgin. Endi boshqa bunday qilmayman...



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Oʻtilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Oʻquvchilar topshiriqlarni bajarib, oʻtilgan mazuni qismlarga boʻlib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, oʻqituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:**
1. Hikoyada qanday muammo ochiq koʻrsatilgan?
2. Hikoya qahramonlari orqali muallif qanday insoniy fazilatlarni uluglagan?
3. Sizningcha, hikoya nima uchun " Izza" deb nomlangan?

**OʻIBDOʻ:** ________________________ _______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Mehr  urug‘i**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini  bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Berilgan  bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzib,  ularni  izohlang.**






Qadim zamonda bir badavlat odam bo‘lgan ekan.
U bir kuni tush ko‘ribdi. Tushida bozorda yurgan emish. Bir do‘konning ichiga kiribdi. Sotuvchi chol unga peshvoz chiqib, nima kerakligini so‘rabdi. Haligi odam:
- Men boy-badavlat odamman, hech narsaga hojatim yo‘q, shunchaki aylanib yuribman, - deb javob beribdi. Sotuvchi esa:
- Ey o‘g‘lim, bu dunyoda hamma narsasi bor odam bo‘lmaydi, hatto badavlat odamlarga ham nimadir yetishmaydi, - debdi. Haligi odam o‘ylab turib:
- To‘g‘ri aytasiz, otaxon, lekin menga kerak narsalar bozorda sotilmaydi-da, men ularning narxini ham bilmayman, - debdi.
- U narsalar nima ekan, balki mening do‘konimda bordir? - so‘rabdi sotuvchi chol.
- Otaxon, ular do‘stlik, muhabbat va oqibat, - debdi haligi odam. Shunda sotuvchi chol:
- o‘g‘lim, bu narsalar juda arzon, lekin shunga qaramasdan o‘ta kamyobdir. Buni qarangki, do‘konimga kirib adashmabsiz, bizda shu narsalar bor, sizga berishim mumkin, - debdi.
- Rostdanmi, qani bir ko‘ray-chi! - debdi u. Chol peshtaxta ostidan bir quticha olibdi va o‘sha odamning oldiga qo‘yibdi. - Shumi?! - hayron bo‘libdi kishi va qutichani ochib qarabdi. Lining ichida uch dona urug‘ bor ekan. - Bular urug‘lar-ku, ularni nima qilaman? - so‘rabdi kishi.
- Ha, bular mehr-oqibat va muhabbat urug‘lari, ularni har bir odam o‘zi uchun o‘zi ekishi va parvarish qilishi kerak. Axir, siz do‘st-yor va qarindoshlar birovniki emas, o‘zingizniki bo‘lishini xohlaysiz-ku, to‘g‘rimi? - deb so‘rabdi chol.- To‘g‘ri, lekin men ularni qayerga ekishni va qanday parvarish qilishni bilmayman-ku! - debdi haligi kishi.
- Gap shundaki, siz ularni yerga ekmaysiz, bir qultum suv bilan yutib yuborasiz, qanday parvarish qilishni esa qalbingiz o‘rgatadi, faqat siz unga quloq solsangiz bo‘ldi, ishni orqaga surmay, hozirdan boshlayvering, - deb chol piyolada suv uzatibdi.
Haligi odam suv bilan urug‘larni yutib yuboribdi va shu payt cho‘chib uyg‘onib ketibdi. Ko‘rgan tushi haqida o ‘y la y boshlabdi. o‘sha on birdan ko‘ziga keksa onasi ko‘ringanday bo‘libdi, uni anchadan beri ziyorat qilmaganini eslab, shu bugunoq borishga jazm qilib o‘midan turibdi.



**V.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uygа vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Bilasizmi, bolalar?**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Bilasizmi, bolalar?
Tolib Yoldosh
Zo‘ravon kim, qo‘rqoq kim,
Bilasizmi, bolalar?
Bularning har ikkisi -
Qo‘rqoq ko‘zli bolalar.
Zo‘ravonlik nomiga,
Asli qo‘rqoq o‘zlari.
Sag‘al gapga jiringlab,
Ola-kula ko‘zlari.
“Kel, qo‘y” , desang qaramay,
Yoqangizdan tutadi.
Bunday maqtanchoqlardan
Kim polvonlik kutadi?
Polvon boshqa, bilsangiz,
U og‘ir, yuvosh bolar.
Bir kuchin ko‘rsatsami,
Qirq bolaga bosh bo‘lar.



Yo‘q, yo‘q, u juda kamtar,
Manmanlikni xushlamas.
o‘rtoqlarin hurmatlar,
Yoqasidan ushlamas.
Maqtanchoqqa
Sen o‘zingni o‘zing ko‘kka
Ko‘tarma ko‘p.
To‘g‘ri, o‘zing juda yaxshi -
Bolasan, xo‘p.
Lekin seni boshqa birov
Maqtar bo‘lsin,
So‘zlaringga keksa-yu yosh
Mahtal bo‘lsin.
Hayotda bir o‘zing emas,
Qaraysanmi?
Hamma sevib, maqtashlikka
Yaraysanmi?



Har bir so‘zni qatnashtirib, 4 ta gapdan iborat matn tuzing.

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:**

1. Berilgan she’rlar nima haqida?
2. Bu ikki she’rning qaysi xususiyatlari bir-biriga o‘xshaydi?
3. Siz mard kishi deganda kimni tushunasiz?
4. Nima deb o‘ylaysiz, shoir nima uchun zo‘ravon va qo‘rqoq bolalar haqida yozgan?

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Kapalak**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Kapalak**

Bahromjonning tili biyron chiqqan bo‘lsa ham, hali ko‘p narsalarning nomini bilmasdi. Bir kuni u yugurib uyga kirdi-da, Bahodir akasining qo‘lidan tortqilay boshladi. Menga ham yopishib: “Yuringlar, kattakon kapalak” , - dedi. Hovliga chiqdik. Yo‘lakda bir chumchuq bolasi yotardi. Inidan tushib ketibdi. Og‘zini kappa-kappa ochadi. Olib qarasam, bir oyog‘i singan. Bahodir ikkimiz “vrachlik” qildik. Qushchaning singan oyog‘iga qog‘oz o‘rab, ip bilan yaxshilab bog‘lab qo‘ydik. Go‘yo taxtakachladik. Iniga qo‘yaylik desak, bo‘g‘otning ichiga qo‘l sig‘maydi. o‘z aqli bilan kirib ham ketmaydi. Tag‘in mushukka yem bo‘lmasin, deb botinka qutisiga solib, uy tokchasiga qo‘ydik. Bahodir pashsha tutib berdi. Bahromjon non uvoq bilan mehmon qilib turdi. Qushcha kundan kun o‘sib, qutichadan chiqib, uy aylanadigan bo‘lib qoldi. Ba’zan ona chumchuqning ovozini eshitib, chirqillab qo‘yadi. Bahromjon esa kapalak gapiryapti, deb sevinchi ichiga sig‘maydi. Buni eshitgan akasi “Kapalak emas, chumchuq”, - deb qo‘yadi.

Bir kuni oyog‘ini yechsak, yarasi bitibdi. Ikki-uch kundan keyin esa pirillab uchadigan, o‘zini derazaga uradigan, tinimsiz chirqillaydigan bo‘lib qoldi.

- Uchirib yuboramizmi chumchuqni? - deb so‘radi Bahodir ukasidan.

Bahodirjon ko‘nmadi:

- Kerakmas, kerakmas! Chumchuqni uchirmayman, - deb turib oldi.

Men, ular qanday to‘xtamga kelishar ekan, deb indamay turdim. Bahodir biroz turgach, so‘z

boshladi: - Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog‘i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog‘i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi. Bola esa erta-yu kech yig‘layveribdi. Shu yerga kelganda Bahodir biroz to‘xtadi-da, so‘ng so‘radi:
- Bilasanmi, nega yig‘lagan?- Uyiga yuborishmagani uchun yig‘lagan.
Adasini, oyisini sog‘ingan, - deya javob berdi Bahromjon.
- Topding, - dedi Bahodir. - Biz vrach bo‘ldik. Chumchuqning oyog‘ini tuzatdik. Endi u dadasi bilan onasini sog‘inib yig‘layapti. Uni ushlab o‘tiraveramizmi?
Bahromjon biroz ikkilanib turdi-da:
- Qo‘yib yuboramiz, - dedi.
Chumchuq bolasi derazadan chiqib, gilos shoxiga qo‘ndi, so‘ng pastga qarab bir-ikki chirqilladi-da, uchib ketdi.
- Chumchuq nima dedi? - so‘radi Bahromjon.
- “Bahromjon akamga rahmat!” deb aytdi, - dedi akasi. Bahromjon irg‘ishlab qichqirdi.
- Rahmat! Rahmat



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:**

1. Hikoya nima uchun “Kapalak” deb nomlangan?
2. Aka-ukalar nega chumchuqni uyqa olib keldilar?
3. Bahromjon nima uchun xarxasha qilar edi?

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Toshpo‘lat**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Toshpo‘lat
Abdurahmon Akbar
Kuchlilardan kuchli sanar
Toshpo‘lat o‘zin.
Isbotlamoq bo‘lar bizga
Chinligin so‘zin.
Yo‘l chetida yotgan bo‘lsa
Xarsan'gtosh, g‘o‘la,
lrg‘itadi dast ko‘tarib
Uni bir yo‘la.
Kafti bilan qoq ikkiga
Bo‘ladi g‘ishtni.
Jimjiloqda mixni bukib,
Der: “Shu ham ishmi?”



Qoyil qolib hurmatlardik
Biz uni juda.
Bir kun bilib qoldik bari
Ekan behuda.
...Avtobusda qaytar edik
Uyimiz tomon.
Qo‘l ko‘tarib, yo‘ldan chiqdi
To‘rt-besh otaxon.
Bizlar darrov joy bo‘shatib,
Desak: “Marhamat!”
Oyna tomon yuzin burib
Oldi Toshpo‘lat.
Bor-yo‘g‘i qirq daqiqalik
Yo‘l edi manzil -
Do‘stimizning qilig‘idan
Bo‘ldik mulzam, zil.
Toshpo‘latning polvonligi
Ekan yolg‘on, puch.
Topolmadi tik turishga
U o‘zida kuch.



She’r voqealarini o‘zgartiring. Unda Toshpolat xato qilgan xatti-harakatini to‘g‘rilab yozing.

1. She’r kimning nomidan yozilgan?
2. She’rda qanday sifatlar keltirilgan?
3. Toshpo‘lat qanday xatti-harakati bilan o‘z hurmatini yo‘qotdi?
4. Siz Toshpo‘latni qanday bola deb hisoblaysiz?
5. She’rdan qanday xulosa chiqarish mumkin?
6. Siz ham shunday vaziyatlarni kuzatganmisiz?

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Bo‘lim yuzasidan takrorlash**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

1. Bo‘limda qanday asarlar bilan tanishdingiz?
2. Bolimdagi qaysi asar sizda ko‘proq taassurot qoldirdi? Nima uchun?

- Nega jahling chiqadi? Hozir tinib qoladi.

Men xazonlarni doim suvga supurib tashlayman. Hech narsa qilmaydi, buvim aytgan: “Suv yetti marta dumalasa, toza bo‘larkan”.

- Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog‘i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog‘i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi, bola esa erta-yu kech yig‘layveribdi.
- Gap shundaki, siz ularni yerga ekmaysiz, bir qultum suv bilan yutib yuborasiz. Qanday parvarish qilishni esa qalbingiz o‘rgatadi, faqat siz unga quloq solsangiz bo‘ldi. Ishni orqaga surmay, hozirdan boshlayvering.
- To‘g‘ri, lekin men ularni qayerga ekishni a qanday parvarish qilishni bilmayman-ku!



“Shaxmat taxtasi” mashqi. Shifrlangan so‘zlarni toping. Shaxmat doskasidan foydalanib, yashiringan so‘zlarni toping. Ular qaysi mavzularga mos kelishini ayting.




**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Bolimdan olgan ma’lumotlaringizga tayanib, insoniy faziiatlar haqida hikoya tuzing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ____________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Nazorat ishi-8**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
**1-TOPSHIRIQ — Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing va savollarga javob bering:**
**Matn:**
*Bahor shabada esayotgan bir kuni Aziz bog‘ga bordi. U gullarning hidini his qilib, shod bo‘ldi. Daraxtlar orasida uchib yurgan qushlar shod-xurram qo‘shiqlar aytishdi. Aziz qushlarning sayrashini tinglab, tabassum qildi. Keyin uyga qaytib, bugun ko‘rgan voqealar haqida ota-onasiga hikoya qilib berdi.*
**Savollar**
**1) Matnda nechta gap bor?**
Javob: ____________

**2) Quyidagi gaplardan to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:**
A) Aziz ota-onasiga voqeani aytib berdi.
B) Aziz bog‘ga bordi.
C) Qushlar shod-xurram qo‘shiqlar aytishdi.
D) Aziz qushlarning sayrashini tingladi.
**Javob: ____________**

**3) Quyidagi so‘zlardan ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lganini belgilang:**
a) shod — ___________
b) qush — ___________
c) tabassum — ___________
Variantlar:
quvonch, yirtqich, kulgi
**Javob:**
a) ___ b) ___ c) ___

---

**4-TOPSHIRIQ — Matn bo‘yicha qisqacha yozing:**
*Matn kim haqida va u nima qildi?* (2–3 satr)

---

---

---

**5-TOPSHIRIQ — So‘z boyligini oshirish**

1. *“Shod-xurram” so‘ziga sinonim yozing:* ___________
2. *“Bog‘ga” so‘zidan yangi so‘z yasang:* ___________

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.
**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.
**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Bolimdan olgan ma’lumotlaringizga tayanib, insoniy faziiatlar haqida hikoya tuzing.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Kitobni qanday o‘qish kerak?**
**Maqsadlar:**
**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.
**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.
**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.
**FK - fanga oid kompetensiyalar**
FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya
FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi
**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.
**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.
**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.
**III. Yangi mavzu bayoni:**
Kitobni qanday o‘qish kerakligi bo‘yicha har kimning tanlovi, didi, fikri turfa va o‘ziga xos, ammo buni ham bilib qo‘yish aslo zarar qilmaydi.
Kitob o‘qish qoidasiga rioya etish shunchalik muhimmi? Mutolaa kitob varaqlashdan nechoglik farq qiladi? Bu borada pedagog Mortimer Adlerning ayrim tavsiyalarini keltirishni joiz topdik. Keling, ayrim bosqichlarni ko‘rib chiqamiz.
1. Kitob sarlavhasini o‘qing, avra-astarini, orqa-oldini tekshiring. Kitobning birinchi sahifasini diqqat bilan ko‘zdan kechiring.
2. Badiiy adabiyotlarga duch kelganda sarlavhalarni ko‘zdan kechirib, yakuniy bobni sinchiklab o‘qing.
3. Kitobdagi ayrim sharhlarni erinmay o‘qib chiqing.
4. Tahlil qilishda eng avval muallif va u yozgan boshqa asarlar bilan biroz qiziqib ko‘ring. So‘ng birrov ko‘z yugurtirib, satrlardagi ma’noni ilg‘ab oljng.
5. Mabodo, biror so‘z, jumla yoki fikrga tushunmasangiz, qandaydir ma’lumot anglashilmay qolsa, darrov atrofdan najot izlang: u xoh lug‘at, ensiklopediya bo‘lsin, xoh muallimingiz.
Asarni tugatgach, ozgina tanqidiy fikrlab, o‘ylaganlaringizni boshqalar bilan baham ko‘ring! Ishonavering, foydasini sezasiz.
Nihoyat, talabchan kitobxon darajasiga yetganingizda o‘qish - bu savollarni to‘g‘ri tartibda berish va ularga javob qidirish bilan nihoyalanadi.

Darvoqe, yana o‘qish payti turfa qaydlar yozish, muddat va belgilar qo‘yib o‘qish ham ziyon qilmaydi. Barchasi sizning foydangizga ishlaydi...



1. Mutolaa deganda nimani tushunasiz?
2. Matndan kitob o‘qishning qanday bosqichlari bilan tanishdingiz?
3. Bu bosqichlarning qaysi biriga amal qilasiz?
4. Talabchan kitobxon darajasiga yetish uchun nima qilish kerak?
5. Kitob o‘qish qoidalariga yana nimalarni kiritgan bo‘lardingiz?

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ________________________ _______________ _______________

*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Kitob - kuch**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Nabijon Ermat 1949-yil 21-noyabrda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tavallud topgan. Lining “99 topishmoq va tez aytish”, “Ellik erkin qushlarim”, “Hayot qo‘shig‘i” , “Sakson sakkiz sara soz” kabi kitoblari nashr qilingan.

Har bir so‘zdagi harflarni kattalashib borish tartibida o‘qing.

Hikmatli so‘zni izohlang.

TOkIB KuYUB

DNShINoMDA



Kitob - kuch
Nabijon Ermat

Kitob sevgan insonga
Kitob erur xazina.
Kitob o‘qimaganlar
o‘zidan qilsin gina.
Kitobsiz uy zim-ziyo,
Yo‘qdir tuynuk, eshigi.
Zulmat uni qurshaydi,
Allalamas beshigi.
Kuch bo‘lsa - kuch topilar
Pashshada ham, baliqda.
Savodsizlik shiori
Hammaga bir qullikda.
Kitobga oshno bo‘lgan
Farqlar yaxshi-yomonni.
Aql bilan ish ko‘rar,
Bekor qiynamas jonni.
Shuning uchun o‘quvchim
Kitob bilan oshno bo‘l.
Zukkolik ulug‘ qurol,
Seni kutar yorqin yo‘l.
Jajjigina qalbingdan
Joy topgin kitobga ham.
E’zoz qilgin non kabi -
Ulg‘ayasan, bolmay kam.
Bobolardan meros u,
Kitob katta kuch bilsang.
Ilmga yetaklaydi,
U bilan do‘st tutinsang.



**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**V.O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:**

**1.**She’r sizda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otdi?
2.Shoir she’rda kitobga qanday ta’rif bergan?
3.Ayting-chi, kitob katta kuch bo‘lishi mumkinmi?
Fikringizni izohlang.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ ______________
*(imzo)* *(sana)*

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Aql va Davlat**

**Maqsadlar:**

**a) ta’limiy maqsad-**o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

**b) tarbiyaviy maqsad-** badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

**d) rivojlantiruvchi maqsad-**o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

**FK - fanga oid kompetensiyalar**

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars usuli:** suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Yashiringan ikkita so‘zni toping.

Ularning o‘xshash hamda farqli tomonlarini ayting.

N+A+Q+L-N=

B+0+S+A+Y-S+L+l+K-A=




1. Ertak nima haqida ekan?
2. Nega Aql bilan Davlat kuch sinashishga qaror qilishdi?
3. Ular yo‘lda kimni uchratishdi?
4. Davlat o‘z hunarini qanday ko‘rsatdi?
5. Bolaning saroyga borib qolishiga nima sabab bo‘ldi?
6. Ayting-chi, bola qaroqchilarning qarorgohiga qanday borib qoldi?

7. Aql bolani qanday yo‘l bilan qutqarib qoldi?
8. Davlat Aqlning kuchliligiga, usiz hech qanday ishning bitmasligini anglashiga nima sabab bo‘ldi?
9. Ertak qanday yakun topdi? Undan qanday xulosa chiqardingiz?
o‘qing. Fikrlar mazmuni rost yoki yolg‘on ekanligini aniqlang.
